

Margarita de Terel o'lim to'shagida yotardi. U ellik olti yoshda bo'lsa-da, uni ko'rganlar yetmish beshni urgan deb o'ylashardi. U bazo'r nafas olar, yuzlari cho'yshabdek oqargan, a'zoyi badani isitma ichida bezgak tutgandek qaltirar, ko'zlari olayib ketgan edi. Undan olti yosh katta opasi karavot yonida cho'kkalab olganicha, yig'lab o'tirardi. Bemorning bosharisiga kichkina yopqich tashlab qo'yilgan stolcha ustida ruhoniyni kelishi oldidan ikkita sham yoqib qo'yilgan edi.

Yotoqxonaga o'ta tartibsiz edi. Stol va javonlar ustida dori qobiqlari, burchaklarda esa, sochiqlar sochilib yotardi. Stul va kursilar xuddi nimadandir qo'rqib har tarafga sochilib ketgandek edi. Ajal qaysidir puchmoqda bekinib olganicha o'ljasiga chang solmoqqa payt poylardi, go'yo.

Opa-singillarning qismati o'ta g'alati kechdi. Ular haqida butun muzofotda gapirib yurishar, ularning dardli kechmishi borasida eshitganlar ko'z-yoshlarini tiyib tura olmasdilar.

Bir paytlar opa-singilning kattasi Suzanna bir yigit bilan qattiq sevishib qolgan, ular hatto unashib ham qo'yilgan, to'y kuni belgilangan, ammo kuyov bo'lmish Anri de Sampier nogahon fano mulkini tark qilgandi.

Tamoman g'am-anduh girdobida qolgan qiz endi hech qachon turmush qurmaslikka ahd qildi. Va u so'zida sobit qoldi. Bevalik libosini butun umr yechmay o'tdi.

Kunlardan bir kun uning o'n ikki yoshli singlisi Margarita opasining bag'riga o'zini otdi va aytdiki:

- Opajon, sening baxtsiz bo'lishingni, butun umr yig'lab-siqtab o'tishingni istamayman. Hech kachon, hech qachon seni tashlab ketmayman. Men ham erga tegmaganim bo'lsin. Sen bilan bir umr, bir umr qolaman, opajon.

Bolalarcha sadoqat va samimiyatdan ko'ngli erib ketgan opa uning peshnasidan o'pib qo'ydi, ammo uning gaplariga ishongisi kelmadi.

Singlisi ham gapida turdi, ota-onasining dag'dag'asiga-yu, kattalarning dod-muomalasiga qaramay er qilmadi. U juda-juda go'zal, latofatli edi. Uning ishqida devona bo'lganlar oz emasdi. ammo, u barchasini rad etdi. Opasini tashlab ketmadi.

Ular bir umr bitta tom ostida ahil-inoq yashadilar. Ular bu adoqsiz yo'lni yelkadosh bo'lib bosib o'tishdi. Faqat singlisi opasiga qaraganda g'amginroq, kayg'uliroq bo'lib ko'rinardi.

U opasidan tezroq qaridi, o'ttiz yoshida sochlari oqarib ketdi. Mana, o'lim ham birinchi bo'lib uni olib ketyapti.

U bir kecha kunduzki, bir og'iz ham gapirgani yo'q. Faqat saharga yaqin tilga kirdi:

- Vaqt bo'ldi, ruhoniyni chaqiringlar.

U hamon dag'-dag' qaltirar, shiftga termilib yotarkan, uning lablari asabiy pichirlar, go'yoki, dil tubida yotgan qandaydir maxfiy bir gapni sirtiga chiqarmoqchi bo'lar, ammo uni tiliga ko'chirolmay qiynalar, ko'zlari qo'rquvdan ma'nosiz boqardi.

Opasi to'shakning bir chekkasiga peshonasini bosganicha, o'ksibgina piq-piq yig'lardi.

- Margo, jigarim, bolajonim!

U singlisini "bolajonim" deb atashga o'rganib olgan edi. Singlisi esa, uni "opacham" deb chaqirardi.

Zinapoyada qadam tovushlari eshitildi. Eshik ochildi. Bo'sag'ada avval yugurdak bola, keyin salobatli kekxa ruhoniyni ko'rindi.

Ularni ko'rib, bemor bor kuchini to'plab, o'rnidan qo'zg'aldi, arang og'zini ochib, tirnoqlari bilan cho'yshabni yirtib yuborgudek tirnadi va bir necha og'iz gapga tili aylandi.

Abbat Simon uning qo'lidan tutib, peshonasidan o'pdi va halimlik bilan dedi:

- Parvardigor sizni afu etgay, bo'tam. O'zingizni qo'lga oling, tavba qilmoq fursatidir.

Shu choq Margaritani shundayin titroq tutdiki, hatto karavot ham silkinib ketganday bo'ldi.

- Opajon, o'tir bu yoqqa, eshit meni.

Ruhoniyni to'shakda parri bo'lib yotgan Suzannaning qo'lidan tutib qarshidagi stul ustiga o'tqizdi va opa-singillarning qo'llarini ushlab munojot qildi:

- Parvardigor! Bandalaringga o'zing madad ber. Ulardan o'z marhamatingin ayama!

Margarita gap boshlarkan, uning og'zidan har bir kalima katta mashaqqat bilan tashqari chiqardi.

- Kechir, opajon, kechir meni! Men umrimning ana shu so'nggi soatidan qanchalar qo'rqqanimni bilmaysan!

Suzanna namli ko'zlarini artdi:

- Nega mendan kechirim so'raysan, bolajonim? Axir sen butun hayotingni meni deb qurbon qilding. Sen farishtasan...

Margarita uning gapini shart kesdi:

- Jim, jim bo'! Gapimni bo'lmay eshit. Qanday dahshat?! Gapimni oxiriga yetkazgunimcha indamay tur, iltimos. Qimirlama...

Eshit... Esingdami... Esingdami... Anri?

Suzanna seskanib singlisiga yuzlandi. U esa gapida davom etardi:

- Meni tingla, hammasini bilib olasan. O'shanda men endigina o'n ikkida edim, o'n ikkida, esingdami? O'shanda juda erka edim.

Xayolimga kelgan ishni qilardim. Meni qanday erkalatib o'stirishganini bilasanmi? Eshitsang-chi?.. U birinchi marta biznikiga kelanida, yaltirok etik kiyib olgandi, eshigimiz oldida otdan tushib, otamga muhim gapi borligini aytdi. Hammasi yodingda bordir? Jimm.. Eshit... Men uning barnoligini ko'rib, hayratdan dong qotdim, va otam bilan gaplashib bo'lgunicha bir burchakda undan ko'z uzmay o'tirdim. Bolalar juda nozik va xavfli mavjudotdir. Eh, men u haqida qancha-qancha shirin xayollarga bormadim.

U yana bir marta keldi. O'yimizda mehmon bo'ldi. Men unga butun borlig'im, qalbm, vujudim bilan tikildim. Men o'z yoshimga qaraganda ancha kattaroq va aqlliroq edim. U biznikiga tez-tez keladigan bo'ldi. Men faqat u haqida o'ylardim. Tinimsiz uning nomini pichirlardim: "Anri, Anri de Sampier!"

Keyin uning senga uylanayotgani haqida eshitib qoldim. Opajon, o'shanda dunyo ko'zimga qorong'u ko'rinib ketdi. Qanchalik qayg'uga g'ark bo'lganimni bilasanmi? Uch kecha uxlamasdan yig'lab chiqdim. U har kuni tushdan keyin kelib turardi...

Esingdami? Javob berishga oshiqma... Sen unga un, yog' va sutdan o'zi yoqtirgan pirojniylar pishirib berarding. Men ham bilardim pishirishni.. Kerak bo'lsa, hozir ham pishirishim mumkin. U pirojniylar chaynamasdan yutar, orqasidan bir qadah sharob ho'plardi, va "zo'r!" deb qo'yardi.

Men uni sendan shunaqa qizg'anardim, shunaqa rashk qilardim. Sen to'ying kuni yaqinlashib kelardi. Atigi ikki hafta qolgandi.

Men esa jinni bo'layozgandim. Men hamma vaqt o'zimga o'zim "U Suzannaga hech kachon uylanmaydi, men buni istamayman, u katta bo'lsam, menga uylanishi kerak. Men umrimda uni sevganchalik hech kimni sevib qololmayman", deb yurardim.

To'yingizga o'n kun qolgan edi. O'sha kuni kechqurun ikkovingiz oy shu'lasi ostida qasr atrofini aylangani chiqib ketdingiz. U..

O'sha kattakon archa ostida sening qo'llaringdan tutib, bag'riga tortdi. Uzo-oq o'pishdilaring. Esingdami, ayt.. yo'q, aytma! Bu sizning ilk bo'sangiz edi, adashmasam. Ha.. Sen mehmonxonaga qaytganingda ranging bo'zdek okarib ketgandi.

This is not registered version of TotalDocConverter

Men sizni ko'rganingim, men bog'da, butun orasidan sizni kuzatib turardim. O'shanda butun vujudimga bir yovvoyi istak oqib kirdi. Quturib ketgandek bo'ldim, go'yoki. O'shanda qo'limdan kelsa, ikkingizni ham o'ldirishga tayyor edim.

"U hech qachon Suzanaga uylanmaydi, U hech kimga uylanmasligi kerak. Men bunday alamni ko'tara olmayman", dedim o'z-o'zimga. O'shanda qalbimda unga nisbatan so'ngsiz nafrat uyg'ondi.

Keyin bilasanmi, men nima kildim? Eshit. Bog'bonimizni eslaysanmi, u har doim daydi itlarni zaharlab o'ldirish uchun shishani tosh bilan ezib, kukunini go'sht parchasiga qo'shib ularga yegizardi.

Men oyim ichgan dorining bo'sh shishasini topdim-da, bolg'acha bilan obdan maydaladim. Keyin kukunini qog'ozga o'rab, cho'ntagimga solib qo'ydim. Ertasiga sen pirojniy tayyorlayotganingda bildirmay, xamir orasiga haligi kukunni joylashtirib qo'ydim. U pishiriqdan uchtasini pok-pokiza tushirdi. Bittasini men yedim... Qolgan oltitasini hovuzga tashlab yubordim. Uch kundan keyin uchta oqqushimiz o'lib qolgani esingdami? Jim deyapman... eshit gapimni! Faqat men tirik koldim, faqat bir umr kasallanib yurdim. U esa... O'ldi... Bilasanmi... Eshit... Bu hali hammasi emas... har doim... Eng dahshatlisi... eshit.

Butun umr.. butun umrim davomida... Oh bu qanchalar azob edi. Men har doim o'zimga, xech qachon opamni tashlab ketmayman, o'limim oldidan esa, hammasini unga aytib beraman, derdim. Ha... Butun umr barchasiga iqror bo'lishim kerak bo'lgan shu so'nggi soat haqida o'ylab keldim. Vaqt-soati yetib keldi... Qanday dahsha-at. O, Opajon!

Erta-yu kech, shomu sahar fakat shu haqda o'ylardim. Hali vaqt keladi, hammasini bo'yninga olaman, derdim.

Mana, hammasini senga aytib berdim... Jim... Bir og'iz ham... Endi. endi men qo'rqaman... juda-juda qo'rqaman. Men hozir uni ko'rsam, u bilan yuzlashsam. O'zing o'ylab ko'r. Axir uni narigi dunyoda men birinchi bo'lib ko'raman. Sen meni kechirmasang, men uning yoniga qanday boraman? Unga ayting, hazrat. Meni kechirsin! Ayting, o'tinaman. Bo'lmasa, men o'lolmayman.

U jim qoldi va tirnoqlari bilan choyshabni timdalay boshladi.

Suzanna yuzlarini bekitib olgancha, qimirlamay turardi. U ayni damda umr bo'yi sevib o'tgani xaqida o'y surardi. Ular qanchalik baxtli yashashlari mumkin edi-ya? U yana ko'rди Anrini? Uni olis-olisdan, itib-bitayozgan o'tmishni qatlarida ko'rди. O, muhtaram marhumlar! Siz yuraklarga kanchalar yaqinsiz? Haligi bo'sa-chi?

Umridagi yagona bo'sa! Bu bo'sa yillar osha uning qalbida ardoq ila saqlanib kelayotir. Uning hayotdagi bor-yo'q yupanchi, davlati ham shu xotiroq parchasi edi, xolos.

Birdan ruhoni qaltiroq va baland ovozda qichqirib yubordi:

- Suzanna bonu! Singlingiz o'layapti.

Suzanna ko'z-yosh ivitib yuborgan yuzlaridan kaftni oldi-da, o'zini singlisinig quchog'iga otdi va uning so'lg'in yuzlaridan o'pib ohista pichirladi:

- Kechirdim, bolajonim, kechirdim!